



TURIZM SOHASINING AHOLI BANDLIK DARAJASINI OSHIRISHDAGI IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

Yunusova Ug'iloy

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0005-8200-0446
ubolkiboyeva@bk.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar tahlili, tarmoqda aholi bandlik darajasi va uni oshirishga qaratilgan nazariy jihatlar o'rganilgan. Bundan tashqari, turizm sohasida bandlik darajasini oshirish borasidagi amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, infratuzilma, turist, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy faollik, xizmatlar sohasi, daromad.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЕКТОРА ТУРИЗМА В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЗАНЯТОСТИ

Юнусова Угиллой

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. В данной статье анализируются основные показатели сферы туризма, изучается уровень занятости в секторе и теоретические аспекты, направленные на его повышение. Кроме того, представлены практические предложения по повышению уровня занятости в сфере туризма.

Ключевые слова: занятость, инфраструктура, турист, экономический рост, экономическая активность, сфера услуг, доход.

SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF THE TOURISM SECTOR IN INCREASING THE EMPLOYMENT LEVEL

Yunusova Ugiloy

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems
of the Development of the Economy of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics*

Abstract. This article analyzes the main indicators of the tourism sector, studies the level of employment in the sector and theoretical aspects aimed at increasing it. In addition, practical proposals are presented for increasing the level of employment in tourism sector.

Keywords: employment, infrastructure, tourist, economic growth, economic activity, service sector, income.

Kirish.

Bugungi innovatsion rivojlanish davrida turizm sohasida aholi bandlik darajasi iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. Chunki ular tomonidan yaratiladigan xizmatlar, mahsulotlar davlatning YaMI ni shakllantiradi. Davlat uchun ishlab chiqarish sohasi orqali aholi bandligini ta'minlashdan ko'ra xizmat ko'rsatish orqali ularning bandligini oshirishga qaratilgan choratadbirlarni amalga oshirish samarali hisoblanadi (Roziqovna, 2022).

Mamlakat iqtisodiyotida bandlik darajasini oshirishga qaratilgan qator qonun, qaror, farmonlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini shakllantirish va aholining samarali bandligi darajasini ta'minlash jarayonida "Aholining ish bilan bandligi to'g'risida"gi qonun (Qonun, 1998) hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022) muhim huquqiy baza hisoblanadi. Bugungi kundagi holatdan kelib chiqqan holda mamlakatimiz uchun samarali bandlik quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

milliy daromadning o'sishi, mahalliy ishlab chiqarishning taraqqiyoti, jamiyat uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish, iqtisodiyotning rivojlanishi;

aholi farovonlik darajasi hamda kasbiy malaka darajasining ortishi va mamlakatda ilmiy texnikaviy rivojlanish holati;

ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasi sifatida yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatining mavjudligi;

davlat boshqaruvining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, korxonalarda ishchilar uchun shart-sharoitlar yaratilganligi va hokazolar.

Harakatlar strategiyasida ham «yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish» muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan edi. Ayniqsa, global koronavirus pandemiyasi sharoitida aholini bandligi va daromadlari darajasini oshirish orqali qo'llab-quvvatlashga, o'zini-o'zi band qilishning yangi shakllarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi va qaratilmoqda.

Bundan tashqari, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo'lib, bu asosida:

- to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

- turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish;

- Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Albatta bu vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator professor olimlar, tadqiqotchilar, turizm eksportlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda (lex.uz, n.d.).

Turizm sohasining YaIM ga qo'shayotgan hissasini aniqlash muhim hisoblanadi. Chunki YaIM ning o'sib borishi ko'plab iqtisodchi va siyotchi olimlar tomonidan iqtisodiy rivojlanishning yakuniy maqsadi sifatida hisoblandi. So'nggi statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, global miqyosda turizmning YaIM ga qo'shayotgan hissasi ortib bormoqda. 2023 yilda sayohat va turizmning global yalpi ichki mahsulotga (YaIM) qo'shgan umumiy hissasi COVID-19 pandemiyasidan oldingi 2019 yilga nisbatan qariyb to'rt foizga kam ko'rsatkichni tashkil etgan. Umuman olganda, sayohat va turizmning jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 2023-yilda 9,9 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich

2024-yilda 11,1 trillion AQSh dollariga yetdi. Bu holat mamlakatlarning turizm sohasida ijobiy o'sishga erishayotganligidan va xizmatlar sohasining rivojlanib borishidan dalolat beradi.

Turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy ahamiyati shundaki, turizm bu – bo'sh vaqtdan unumli foydalanish hisoblanadi ya'ni turizm bilan ijtimoiy hayotning integratsiyalashuvi sodir bo'lishidir. Misol uchun, bir kishi bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun yoki turizm xizmatlaridan foydalana oladi yoki shunchaki o'tkazib yuborishi ham mumkin. Mana shu jarayonda turizm xizmatlarining diversifikatsiyalangan xizmatlar taklifi ko'p bo'lsa turist bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga ehtimollar yuqori bo'ladi. Natijada turizm ijtimoiy muhitga o'z ta'sir darajasini ko'rsata oladi.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm sohasida yangi ish o'rinlarini kashf etish hamda bandlik darajasini oshirishga qaratilgan turli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo, turizmning rivojlanishi qashshoqlikdan qutilishiga sabab bo'lishini isbotlaydigan tahlillar bugungi kunda o'z tadqiqotchisini kutmoqda. Zhao, Ritchielarning (2007) ta'kidlashicha Turizm iqtisodiyotini rivojlantirish, sezilarli ravishda valyuta jalb qilish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, soliq tushumlarini ko'paytirish va ish bilan ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Kruz va Vanegas (2008) Yengle va Grangerning koordinatsion yonndashuvidan foydalangan holda iqtisodiy o'sishni, qashshoqlikni kamaytirishni va turizmni ko'p o'zgaruvchan tahlilida, turizmni rivojlantirish Nikaraguada qashshoqlikni kamaytirishga yordam berganligini aniqladi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turizmni rivojlantirish rivojlanayotgan mamlakatlarda daromadni oshirish, malaka oshirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi. Hisoblanadigan umumiy muvozanat (SGE) modelidan foydalangan holda, Bleyk, Arbach (2008) ta'kidlashicha, turizmning rivojlanishi Braziliyada qashshoqlikni kamaytirishga yordam bergan. Olimlarning bildirgan fikrlaridan xulosa qiladigan bo'lsak, turizm sohasining rivojlanishi mamlakatni qashshoqlikdan qutqarish, yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar turlarni oshirish, kichik biznesni rivojlantirishga yordam beradi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizm sohasi mehnat talab qiladigan va muhim bandlik manbaidir. U dunyodagi eng yaxshi ish yaratuvchi sohalardan biri bo'lib, u turli darajadagi malakani talab qiladi va yoshlar, ayollar va mehnat muhojirlari uchun ish o'rinlarini tezroq topish va tezda kirish imkoniyatini beradi. Ba'zi mamlakatlarda turizmning bandlikdagi ulushi katta; Masalan, Hindiston turizm sohasida ish o'rinlari yaratish bo'yicha 25 million ish o'rni bilan jahonda ikkinchi o'rinda turadi.

Butunjahon Turizm Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, turizm sohasida oxirgi 2 yil ichida ayollar bandlik darajasi yuqori ko'rsatkichni qayt etdi. 2023-yilda turizm sohasida band bo'lganlarning 11 foizini (15-24 nafar) yosh ishchilar tashkil etgan bo'lsa, bu ulush xizmatlar va nomoliyaviy iqtisodiyotda 9 foizni tashkil etdi (UNWTO ma'lumotlari). 2024-yilda turizm sohasida dunyo bo'ylab jami 2,9 mln kishi band bo'lgan bu 2023-yilga nisbatdan 9,7 % ga o'sgan (Lamoncloa.gob.es, 2025).

Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) taqdim etgan ma'lumotga ko'ra, turizm sohasida umumiy ish bilan band bo'lganlarning soni jihatidan Flippin davlati yetakchilik qilmoqda. O'zbekistonda turizm sohasida bandlik darajasi boshqa ko'rsatkichlarga nisbatdan salbiy ko'rinishga ega. Turizm sohasida bevosita bandlikdan tashqari bilvosita bandlik darajasi ham tarmoqda ishlaydigan aholi sonini ortishiga yordam beradi. Shunday ekan, biz ko'proq xizmat ko'rsatish sanoatini rivojlantirishga e'tibor qaratishimiz joizdir. Turizm sohasini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida ish beruvchi tashkilotlarning yuqori malakali kadrlarga ehtiyojlarini qondirish, aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birga mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari hozirgi davrda hal etilishi lozim bo'lgan muhim

masalalardan biridir. Turizmning rivojlanishida malakali kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati jamiyatning iqtisodiy xizmatlar ko'rsatish talablariga asosan belgilanadi. Turizmda malakali kadrlar tayyorlash jarayoni ta'limning maqsad va vazifalari, usullari, mazmuni, ta'lim tizimining samara-dorligiga bevosita bog'liq. Malakali kadrlar tayyorlashning maqsadi kerakli yo'nalishdagi bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislar, turli tarmoqlarda faoliyat yurituvchi malakali kadrlarni tayyorlash yoki hududda kadrlar malakali qatlamini yuzaga keltirish orqali jamiyatning umumiy bilim darajasini oshirish va boshqaruvini takomillashtirishdan iborat.



1-rasm. Dunyodagi ayrim davlatlardagi turizm tarmog'ida ishlaydiganlarning umumiy soni (ming kishi), 2022 y.

Mamlakatimiz turizm sohasining tez sur'atlarda rivojlanish darajasi bo'yicha yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallamoqda. Bu gaplarimizning isbotini yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar sonining oshib borishidan ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonga 2016-2024 yilda tashrif buyurgan sayyohlar soni (rejada va amalda)


No	Yillar	Turistlar soni (ming naf)		Foizda %
		rejada	amalda	
1	2016		2027,0	
2	2017		2690,1	
3	2018	5346,0	5346,2	100,0%
4	2019	6041,0	6748,5	111,7%
5	2020	7010,0	1504,1	21,5%
6	2021	1700,0	1881,3	110,7%
7	2022	2720,0	5232,8	192,4%
8	2023	7000,0	6626,3	94,7%
9	2024	10,500.0	7,288.0	69,4%

Manba: tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

Turizm iqtisodiyotning turli sohalarini qamrab oladi, bu esa ushbu sohada band bo'lgan xodimlar sonini aniq hisoblashni qiyinlashtiradi. Xodimlar sonini real baholash muammosi mehnatning o'ziga xos xususiyati va turizm sohasi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasidagi turli munosabatlar bilan murakkablashadi.

Bandlik statistikasiga ko'ra, mehmonxonalar sanoatida ayollar ulushi 50 foizdan oshadi. Turizmda ish o'rinlari soni iqtisodiyotning boshqa sohalariga qaraganda 1,5 baravar tez o'smoqda. Har 2,5 soniyada turizm sohasida yangi ish joyi yaratiladi (Vavilova, 2005).

O'zbekistonda turizm sanoatida 70 mingga yaqin kishi ishlaydi, bu mehnatga layoqatli aholining taxminan 0,2 foizini tashkil qiladi. O'zbekiston turizm sanoatida tarkibiy o'zgarishlar boshlandi, ichki va kirish turizmining faol rivojlanishi kuzatilmoqda. Darhaqiqat, hozir ko'rayotganimiz – turizm sohasida import o'rnini bosish jarayoni, mamlakatimizning ulkan rekreatsion salohiyatini ochib berishdir. Turizmning barcha uch asosiy komponentini, ya'ni infratuzilmani, turistik xizmatlar sifatini va turistik mahsulotni ilgari surishni bir vaqtda rivojlantirish orqaligina jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishish mumkin. Zero, turizm milliy iqtisodiyotning 53 tarmog'i rivojiga turtki bo'lmoqda, kichik va o'rta biznes rivojiga xizmat qilmoqda. Turizm sohasida bir ish o'rni uchun tegishli sohalarda beshtagacha ish o'rni yaratilmoqda.



2-rasm. Turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar, 2024

Manba: tadqiqotchi tomonidan tuzildi.

Demografik jihatdan tahlil qilganimizda, mamlakatimizga 31-55 yosh oralig'idagi turistlar tashrifi yuqori (yillar davomida o'sish trendda) ko'rsatkichda. Bunday holatni biz O'zbekistonda passiv turizmning jadal rivojlanib borayotganligidan deb izohlaymiz. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarida ziyorat turizmi, madaniy hamda milliy turizmning ildizlari yoyilgan deb ayta olamiz. Shu sababli ham bu yosh orasidagi sayyohlar oqimi ko'rsatkichi bizning mamlakatda yuqoridir.

2024 yil davomida turistik xizmatlar eksporti 3 mlrd. 184,5 mln. AQSh dollar (yillik reja-2,5 mlrd dollar)ni tashkil etdi. 2023 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshdi. Grafikdan ma'lumki, xizmatlarni eksport qilish hajmi (1mlrd. 316 mln AQSH dollar) bo'yicha qo'shni davlatlar yetakchilik qilgan.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston o'zining boy madaniy va tarixiy merosi, do'stona xalqi va go'zal tabiati bilan o'zining sayohat va turizm sanoatini kengaytirishga intilmoqda. O'zbekiston hukumati turizm sohasini yuqori rivojlanish salohiyatiga ega deb hisoblaydi. O'zbekiston ko'p yillar davomida aksariyat davlatlar bilan viza borasidagi cheklovlarga ega edi va hukumat turizmni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida uning boy madaniy va tarixiy merosiga kirishni ochish uchun islohotlarni boshladi. 2020-2021-yillarda turizm sohasi pandemiyadan qattiq zarar ko'rdi va turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar va boshqa soha ishtirokchilari turli shakllarda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. 2021-yilning mart oyidan boshlab O'zbekistonda 90 ta davlat fuqarolari uchun vizasiz rejim, 57 davlat, jumladan, AQSh fuqarolari uchun elektron vizalar o'rnatildi. Hukumatning maqsadi turizm xizmatlarini 2018-yildagi 1 milliard dollardan 2025-yilda 2,2 milliard dollargacha oshirishdan iborat. Buning uchun infratuzilmaga katta sarmoya kiritish talab etiladi – 2021-yil fevralida Prezident turizm infratuzilmasini rivojlantirish,

mehmondo'stlik ta'limi hamda global mehmonxonalarni jalb qilish uchun 100 million dollar ajratdi. Rivojlanish rejasida kamida 50 ta xonaga ega uch va to'rt yulduzli mehmonxonalarni davlat subsidiyasi asosida qurish, xonalarning umumiy sonini 20 200 tadan (2018 yil) 64 000 taga (2025) ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillarimiz kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, turizm sohasi bugungi shiddat bilan rivojlanib, zamonaviylashib borayotgan dunyo uchun katta imkoniyat eshigini ochmoqda. Bu yuqori ilmiy salohiyat, sifatli va samarali ta'limning mevasi hisoblandi desak adashmaymiz, chunki fikrimizni so'nggi besh yillik ma'lumotlar isbotlab ko'rsatmoqda.

Turizm sohasida bandlik darajasini oshirish borasidagi takliflar:

1. Respublikamizning har bir hududida turizm sohasidagi imkoniyatlaridan kelib chiqib mahalliy turizm infratuzilmasini rivojlantirish lozim. Bu orqali o'sha hududlarda turizm sohasining yangi yo'nalishlarini tashkil etishimiz hamda aholini ish bilan bandlik darajasini oshishiga erishishimiz mumkin;

2. Bundan tashqari, turizm sohasida turistik tadbirlar va festivallarni ko'paytirish lozim. Chunki bu bizga ichki turizmni rivojlantirishga, odamlar o'rtasida ijtimoiy ijobiy muhitni shakillantirishga va eng muhimi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Abdurahmanovani G.Q. (2023) "Turistik klasterlarning texnologik platformasini ishlab chiqish", *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, dekabr. Maxsus son.*

Blake, A.; et al. (2008). *Tourism and poverty relief. Ann. Tour. Res.*, 35, 107

Croes, R.; Vanegas, M. (2008) *Cointegration and Causality between Tourism and Poverty Reduction. J. Travel Res.* 47, 94.

Eshtayev A.A. (2023), "Qoraqolpog'iston Respublikasida turizm sohasining yangi yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari", *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, dekabr. Maxsus son.*

Eshtayev A.A. (n.d.), "O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga global trendlarning ta'siri" <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Knut Scherhag, Jens Rüdiger, Axel Dreyer (2023) "Introduction to wine tourism" article., *Decembe.*

Kodeks (2022) *O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.* – T.: Adolat. -256 b.

Lamocloa.gob.es. (2025). *The tourism sector closes the year with 2.9 million people employed, 9.7% more than in 2023.* [online] Available at: <https://www.lamocloa.gob.es/lang/en/gobierno/news/Paginas/2025/20250207-tourism-employment.aspx>.

Lex.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi*

Qonun (1998) *O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuni (yangi taxriri).* – T.: Sharq.

Roziqovna N.X. (2022) "Turizm sohasi rivojlanishining aholi bandligini ta'minlashga ta'siri" *monografiya.*

Teodora Kiryakova-Dineva, et al. (2021) *South-West University "Neofit Rilski", Blagoevgrad, Bulgaria., "New Forms of Tourism: A Matter of Neologism Formation or Reality in the Tourism Practice" "A Virtual Conference hosted by Politechnic Institute of Porto, Portugal., 20-21 May.*

Zhao, W.; Ritchie, J.R.B. (2007) *Tourism and Poverty Alleviation: An Integrative Research Framework. Curr. Issues Tour.* 10, 119.

Вавилова Е.В. (2005) *Основы международного туризма.* — М.: Гардарики, с. 160.